ISSN: 2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ

ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ

3-СОН

МАРТ, 2023

IMFAKTOR PAGES

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
НОМЕР-3

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

3-СОН

FUNDAMENTAL STUDIES
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL
VOLUME-3

ТОШКЕНТ - 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР
илмий-амалий журнали
№ 3 (2023) DOI http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-3

Бош муҳаррир:
Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:
Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:
Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент
Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент
Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор
Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор
Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент
Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори
Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор
Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор
Идиров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор
Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент
Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент
Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор
Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор
Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054837**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: https://imfaktor.uz, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.
Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.
© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ISSN: 2181-4031
www.imfaktor.uz

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Социология фанлари

NURULLAYEVA Umida
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7714574

SOTSIOLOGIYADA QADRIYATLARNI O'RGANISH METODOLOGIYASI

ANNOTATSIYA

Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning qadriyatlar yo'nalishida olib borgan izlanishlari, ular yaratgan qadriyatlar tipologiyasi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarning ma'naviy va axloqiy oqibatlari, qadriyatlar o'zgarishini tadqiq qilishning dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, qadriyatlar nazariyasi, qadriyatlar tipologoyasi, shaxsiy va jamoaviy qadriyatlar, hayotiy muhim maqsadlar, vositachi qadriyatlar.

АННОТАЦИЯ

В статье описаны исследования, проведенные отечественными и зарубежными учеными в области изучения ценностей, созданные ими типологии ценностей, духовно-нравственные последствия изменений в системе ценностей, актуальность исследования изменений в ценностной структуре.

Ключевые слова: ценности, теория ценностей, типология ценностей, личные и коллективные ценности, жизненные цели или инструментальные ценности, промежуточные или терминальные ценности.

ANNOTATION

The article describes the research conducted by domestic and foreign scientists in the field of studying values, the typologies of values created by them, the spiritual and moral consequences of changes in the system of values, the relevance of studying changes in the value structure.

Key words: values, value theory, typology of values, personal and collective values, life goals or instrumental values, terminal values.

Qadriyatlar – guruh yoki shaxs uchun nima ma'qul yoki noma'qul ekanligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ideallar yoki e'tiqodlar majmui. Odamlar o'z qadriyatlariga asoslanib dunyo va jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Ular ko'p hollarda insonning umumiy hayotiy tushunchalari va tamoyillari sifatida tanlovlarini belgilab beradi.

Sotsiologiya fani doirasida qadriyatlar jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni, shaxs va inson xulq-atvorining rivojlanish istiqbollarini me'yoriy tartibga solish va tuzatish orqali ijtimoiy tizimlarning yaxlitligini ta'minlaydigan axloqiy me'yorlar sifatida o'rganiladi [1]. Mazkur fan doirasida qadriyatlar ijtimoiy tizimning, jamoat ongining va madaniyatining elementlari sifatida ko'rib chiqiladi hamda ommaviy ongda o'ziga xos qadriyatlar yo'nalishlarining tarqalishi, ularning odamlar xatti-harakatlariga motivatsion ta'siri o'rganiladi.

Qadriyatlar nazariyasi an'anaviy madaniyatdan shaxsiy madaniyatga o'tish jarayoni boshlangan X1X asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Ma'lumki, hech bir jamiyat qadriyatlarsiz mavjud bo'lolmaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot mazmuni va maqsadlari, ijtimoiy xulq-atvori, jamiyat ideallarida namoyon bo'ladi. Ammo har bir shaxsning o'zi bu qadriyatlarni qabul qilish yoki rad etishni o'zi hal qiladi.

Amerikalik mashhur psixolog **M. Rokich** o'zining "Inson qadriyatlari tabiati" asarida sotsiologiya inson va jamiyat qadriyatlari haqidagi fan ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning nazarida sosiologiya insonni madaniyat va jamiyat bilan solishtirigan holda taqqoslama o'rganadi [1]. **T. Parsons** qadriyatlarni kichik ijtimoiy guruhlar va butun jamiyatning roziligini ta'minlaydigan, insonlarning o'zaro ta'siri esa ushbu tizimning hujayrasi bo'lgan ijtimoiy tizim modelini tashkil etuvchi eng yuqori tamoyillar sifatida ta'riflagan. Umumiy ma'noda qadriyatlar "jamoatchilik va ko'pchilik tomonidan ma'qullangan g'oyalar bo'lib ularga ezgulik, adolat, vatanparvarlik, muhabbat, do'stlik va hokazolarni kiritish mumkin" [2, C. 360]. **I. Kant** qadriyat tushunchasini iroda talabi sifatida ta'rifalagan va bunda insoniy maqsadlar hamda shaxsiy hayotiy omillarning ahamiyatini e'tirof etgan [3, C. 75-76]. **G. Spenser** shaxs erkinligining tarafdori bo'lib, uni eng oliy qadriyat sifatida ko'rgan. U zamonaviy jamiyatda davlat shaxs erkinligini cheklamaydigan, insoniyat boshqalarning huquqlarini buzmagan holda o'z ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan uyg'un jamiyat nazariyasini ilgari surgan [4, C. 287]. Sotsiologiyaga qadriyatlar muammosini kiritgan birinchi sotsiolog **M. Veber** uni tarixiy davrning ko'rinishi, ana shunday davrga xos bo'lgan qiziqish yo'nalishi sifatida talqin qilgan. "Ideal tip" toifasi M.Veberning eng muhim uslubiy quroli hisoblanib, real hayotda sof shaklda uchramasada, ammo davrning qiziqishini nazariy jihatdan aniq yohud mukammal ifodalab beruvchi tuzilma sifatida shakllantirilgan. Ideal tipning xususiyatlari orqali ma'lum qadriyatning vazifalarini yaxshiroq tushunish va tahlil qilish imkoni paydo bo'lgan [5, C. 46].

Qadriyatlarning tasnifi turli asoslarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat hayotining sohalariga ko'ra: *moddiy, axloqiy, ma'naviy, diniy*; predmet mazmuniga ko'ra: *iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy*; tizim darajasiga ko'ra: *an'anaviy, liberal, universal* va h.k [3, C 75-76].

Qadriyatlarni jamoaviy va shaxsiy qadriyatlar turlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy darajadagi ***jamoaviy qadriyatlar*** jamiyat a'zolarining o'zaro birdamligini ta'minlaydi, ya'ni ular individual ravishda erishish mumkin bo'lmagan maqsadlarga yetishishni osonlashtiradi. Demak, qadriyatlar insonning orzu qilishiga yordam beradi hamda bunday maqsadlarga erishish yo'llarini belgilaydi. Qadriyatlar insonlarni yashash maqsadi bilan qurollantiradi. Ular asosiy rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Mustahkam qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan insonlar har doim qoniqarli hayot kechiradilar, chunki ular mazmunli ish qilayotganlarini bilishadi.

Shaxsiy qadriyatlar inson shaxsini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, ularga ahloqiylik, halollik va sadoqat kabi tushunchalarini kiritish mumkin. Jamoaviy qadriyatlar esa guruh birdamligi yoki jamiyatdagi adolat, xushmuomalalik, birdamlik me'yorlari (normalari) bilan bog'liq.

I. Kant qadriyatlarni mutlaq hamda nisbiy qadriyatlarga ajratgan bo'lib, birinchisi insonning ongi va irodasiga asoslanadigan axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa insonning ehtiyojlari, istaklari, intilishlariga qaratilgan bo'lishini ta'kidlagan. Sub'yektiv qadriyatlar me'yoriy ifodalarda tushuniladi: munosabat, baholash, taqiqlar [3, C 75-76].

Qadriyatlar tizimidagi farqlar insonning o'tmishdagi tajribasi hamda madaniy kelib chiqishi bilan bevosita bog'liq. Shu asnoda bir kishi uchun halollik ustun tursa, boshqasi sodiqlikni qadrlashi mumkin. Shaxs bir nechta ***qadriyatlar to'plami***ga ega bo'lishi mumkin. Ammo uning turli qadriyatlarni e'zozlash darajasi turli xil bo'ladi. Misol uchun bir inson bir vaqtning o'zida oila va boylikni qadrlashi mumkin. Ammo bu odam oila va boylik o'rtasida tanlovga duch kelgan vaziyatlarda birini boshqasidan ustun qo'yishi, ulardan birini tanlashi normal holat sanaladi.

Qadriyatlar inson axloqiy qarashlarining asosi sifatida uning kundalik xatti-harakatlarini tartibga soladi, erishishi kerak bo‘lgan yakuniy maqsadlarni va ularga erishish yo‘llarini belgilaydi. Shu bilan birgalikda insonning har bir anglangan qarori uning hayotiy qadriyatlari asosida qabul qilinadi. Jamiyat rivoji nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, oilani qadrlaydigan, oila manfaatlarini ustun qo‘yadigan kishi mukammal inson hisoblanadi. **M. Rokich** ***maqsadli qadriyatlar***ni (hayotiy maqsadlar yoki terminal qadriyatlar) shaxslar yoki guruhlar erishmoqchi bo‘lgan yakuniy maqsadlar sifatida ta’riflagan. Bunday qadriyatlarga oila xavfsizligi, muvaffaqiyat, o‘z-o‘zini hurmat qilish, moddiy farovonlik kabilar kiradi. Guruh yoki shaxsning qadriyatlar tizimida maqsadli qadriyatlar eng yuqori darajali ideallar sanaladi. Maqsadli qadriyatlar inson yoki guruhning istalgan maqsadga erishish uchun shaxs tomonidan qabul qilingan qarorlar bilan bog‘liq boshqa qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, boylik orqali muvaffaqiyat tuyg‘usiga erishmoqchi bo‘lgan odamlar boylik orttirishga mos keladigan qadriyatlar va hayot tanlovlarini birinchi o‘ringa qo‘yadilar.

Hayotiy muhim maqsadlar eng muhim qadriyatlar hisoblanadi. Chunki ular odamlarning burchlari va fazilatlari strategiyasini belgilab beradi. Maqsadli qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan kamdan-kam o‘zgargani uchun barqarorligi bilan alohida ajralib turadi.

M.Rokich qadriyatlarning yana bir turini ajratib ko‘rsatgan, bu ***vositachi qadriyatlar*** (instrumental) bo‘lib, ular shaxsning hayotiy maqsadlariga erishishda yordam beradigan xatti-harakatlarning o‘ziga xos usullari, vositalari sifatida tavsiflanadi. Insonning hayotiy maqsadlari va shaxsiy xarakter xususiyatlari vositachi qadriyatlarning ko‘pchiligini belgilab beradi hamda ayrim holatlarda ularni tashkil qiladi. Mustaqil ravishda mazkur qadriyatlar maqsad emas, balki yakuniy maqsadga erishish usulidir. Misol sifatida jamiyatda o‘zini tuta bilish, halollik, samimiylik, shuhratparastlik kabi xatti-harakatlarni keltirish mumkin. Vositachi qadriyatlarning muhim jihati shundaki, ular odamlarga o‘z maqsadlariga erishishda o‘zini qanday tutish kerakligini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi va shu nuqtai nazardan muhim hisoblanadi.

Insonning maqsadli va vositachi qadriyatlari chambarchas bog‘liq bo‘lgan holda ularning biri insonning hayotiy maqsalarini belgilab bersa, ikkinchisi ushbu maqsadlarga yetishish yo‘llari, usullarini aniqlab beradi. Misol uchun kimdir yakuniy maqsad sifatida ijtimoiy tan olinishi yoki boylikka yetishishni istasa, bunday maqsadga qat’iyat, jasorat, mehnat orqali erishishi mumkin bo‘ladi.

Faylasuf **E. Spranger** insonlarning shaxsiyati bilan bevosita chambarchas bog‘lagan holda insonning ***hukmron qadriyatlari***ni (dominant) o‘rgangan. Olimning nazarida hukmron qadriyatlar insonning asosiy qadriyatlari bo‘lib, shaxsiy e’tiqod va dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Dominant qadriyatlar, shuningdek, guruh, madaniyat yoki guruh o‘rtasida keng tarqalgan e’tiqodlarni ham qamrab oladi. Qo‘llaniladigan shartlar bilan aytganda, xodim halollik va sodiqlik kabi bir nechta qadriyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ikkalasi ham maqbul xususiyat sifatida yaxshi xulq-atvorni belgilab beradi.

O‘zbekiston olimlari orasida **D.M. Kenjayev** [6] jadidlar qarashlarida va jamiyat ma’naviy islohotida islom qadriyatlarining o‘rnini atroflicha o‘rgangan, **A.J. Murtabayeva** [7] qanoat va insof kategoriyalari asosida qadriyatlar borasida amaliy izlanish olib borgan, **L.M. Plexanova** [8] insoniy (gumanistik) qadriyatlarning jamiyat madaniy rivojlanishidagi o‘rni va tilda o‘z aksini topishining lingvistik jihatlarini o‘rgangan. **A.A. Xuseynova** [9] A. Jomiy qarashlaridagi umuminsoniy qadriyatlar tahlilini amalga oshirgan. **J.K. Aksakalova** [10] oilaviy munosabatlar va qadriyatlar deval’vatsiyasi sharoitida oila institutining barqaror rivojllanishini va yoshlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik jihatlarini tadqiq etgan, treninglar uchun metodik dasturlar yaratgan. **A.A. Romanyuk** [11] fuqarolik huquqi masalalarida tarixiy va madaniy qadriyatlarning o‘rni jamiyat rivoji nuqtai nazaridan tadqiq etgan. Uning fikricha, qadriyatlarning shakllanishida ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Bular jamiyatda mavjud bo‘lgan ideallar va ularning ta’siri; olimlar ilgari surgan g‘oyalar, ularning ishlari; hamda shaxsning o‘z ehtiyojlari va maqsadlarini amalga oshirish istagi [12].

Shu bilan birgalikda bugungi kunda oilaviy qadriyatlar inqirozi natijasida jamiyatda ayrim holatlarda kuzatilayotgan *ijtimoiy infantilizm* insonning shaxsiy hamda oilaviy hayotidan tashqari boshqa sohalarda ham o‘z aksini topmoqda [17]. **G.Z.Efimova**ning so‘zlariga ko‘ra, sotsiologiya nuqtai nazaridan ma’lum bir ijtimoiy guruhning infantilizmi shaxsning ijtimoiy xususiyati bo‘lib, birlamchi va ikkilamchi sotsializasiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir [18]. Misol uchun ko‘plab rivojlangan jamiyatlarda ayrim erkak va ayollarning nikoh, oilaviy qadriyatlar sohasidagi mas’uliyatsizligi, ya’ni erkinlikni afzal ko‘rishi, nikohni kishan va stress manbai sifatida qabul qilishi namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holat namuna sifatida boshqa jamiyatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Oqibatda oila institutining beqarorlashuvi noto‘liq oilalar sonining ortishiga, oilaviy muammolarning ko‘payishiga, ayrim holatlarda radikal feminizm fenomenining paydo bo‘lishiga ham olib kelishi mumkin.

Xulosa

Jamiyat boshqaruvda qadriyatlarning roli juda katta. Zero qadriyatlar odamlarning o‘zaro munosabatlari va xatti-harakatlarini tartibga soladigan, jamiyat yaxlitligini ta’minlaydigan asosiy me’yorlar vazifasini o‘taydi, odamlarning harakatlari uchun motiv bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs o‘z qadriyatlariga erishishga intiladi va ularga e’tibor qaratadi.

Qadriyatlar o‘zaro ta’sirga kirishgan holda doimo yaxlit tizimni tashkil qiladi. Qadriyatlar tizimi madaniyatning asosi bo‘lib, jamiyatning aksariyat a’zolari tomonidan e’tirof etiladi. Qadriyatlar tomonidan belgilangan jamiyat normalari har qanday ijtimoiy tizimning faoliyati va barqarorligini ta’minlaydi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning istalgan usulini belgilaydigan axloqiy qadriyatlar ushbu tizimning asosidir.

Har bir jamiyat, milliy madaniyat, guruh o‘ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Jamiyat ichida ma’lum farqlar ijtimoiy qatlamlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar va avlodlarning qadriyatlar tizimini tavsiflashi mumkin. Mazkur farqlar, bir tomondan, jamiyatda bir nechta qadriyatlar tizimi to‘qnashadigan nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi, boshqa tomondan, qadriyatlardagi farqlar bir-birini o‘zaro boyitishi mumkin.

Qadriyatlar to‘qnashuvi yuz berganida jamiyatdagi asosiy umuminsoniy qadriyatlar bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu nuqtai nazardan har qanday qadriyatlar tizimi o‘z iyerarxiyasiga ega bo‘lib, jamiyat rivojlanishining doimiyligi va o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Barqaror jamiyatlarda qadriyatlar o‘rtasidagi farqlar madaniyat doirasida hal qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Колосова, В. В. Социологические подходы к изучению ценностей личности в процессе профессиональной деятельности / В. В. Колосова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 9 (113). — С. 999-1002. — URL: https://moluch.ru/archive/113/29277/.
2. Добреньков В. И., Кравченко А. И. Социология. М., 2007. — С. 360.
3. Елишев С. О. Теоретико-методологические подходы к изучению понятий «ценность», «ценностные ориентации»//Вестник Московского университета- 2010. — № 3. — С. 75–76.
4. Спенсер, Г. Основания социологии. В 2 т. Т. 1 / Г. Спенсер. – М.: 2011. – С 287.
5. Вебер, М. Избранные произведения / М. Вебер. – М.: Прогресс,
6. 1990. – С 46.
7. Кенжаев Д.М. Исламские ценности в воззрение джадидов и их концепция духовного реформирования общества. Дисс. Кандидат исторических наук. – Тошкент, 2008. – 154 с.
8. Муртабаева А.Ж. "Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана". Дисс. кандидат философских наук. – Нукус,2000. – 131 с.
9. Плеханова Л.М. «Лингвостилистические особенности и семантико-функциональный характер лексем, выражающих гуманистические ценности». Дисс. кандидат филологических наук. - Ташкент,1998. – 137 с.
10. Хусейнова А. А. Общечеловеческие ценности в мировозрении Абдурахмана Джами. дис. канд.филос.наук : Ташкент, 1994. – 154с.
11. Аксакалова Ж. К. Психологический тренинг как фактор развития ценности семьи. Диссертация. Кандидат психологических наук. – Ташкент, 2008. – 204 с.
12. Романюк А.А. Исторические и культурные ценности как объекты гражданско-правовых отношений. Автореферат. канд. юр.наук. - Ташкент, 2015. – 20с.
13. Петровский А. В. Личность. Деятельность. Коллектив. — [Электронный ресурс] — URL: http://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=14507